Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal
IF(IMPACT FACTOR)9.573/2025 ISSN 2181-1881

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son /2026

TAHRIR HAY'ATI

Muzaffar KOMILOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Shayx Nuriddin XOLIQNAZAR – O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy

Bahrom ABDUHALIMOV – tarix fanlari doktori, professor

Davronbek MAXSUDOV – tarix fanlari doktori, professor

Ahadjon HASANOV – tarix fanlari doktori, professor

Zohidjon ISLOMOV – filologiya fanlari doktori, professor

Shovosil ZIYODOV – tarix fanlari doktori, professor

Uyg'un G'AFUROV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jamoliddin KARIMOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ibrohim USMONOV – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ahmad Sa'd DAMANHURIY – islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Mahmud Erol QILICH – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Nazir Muhammad AYYAD – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Rejep TUZJU – ilohiyotshunoslik fanlari doktori, professor

Muhammad Rashid AKPINAR – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori

Ashirbek MUMINOV – tarix fanlari doktori, professor

Kamaluddin Nurdin MARJUNI – ilohiyotshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Jasur NADJIMITDINOV – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasining 2025-yil 4-noyabrdagi 03-07/7225-sonli xulosasi asosida tayyorlandi.

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZI

Bosh muharrir:
Komiljon Shermuxamedov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Bosh muharrir o'rinbosari:
Shahzod Islamov
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sahifalovchi:
Zarifjon Arslonov

Dizayner:
Zarifjon G'ulomov

«**Moturidiylik**» jurnali **O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi**ning 2021-yil 30-dekabrdagi 310/10-son qarori bilan dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2021-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №1139 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Tahririyat manzili:
Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy.
E-mail: info@maturidijournal.org
Web-sahifa: maturidijournal.org
Telefon: (+99855) 515-98-98,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MUNDARIJA

ISLOMSHUNOSLIK

Ikhtiyor ABDURAKHMONOV
Allohning kalom sifati haqidagi aqidaviy qarashlar va ularning talqini 5

Jobir ELOV
Imom Buxoriy ta’limotidagi axloqiy tamoyillarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni 9

Yahyobek HAYITALIYEV
Radikal g‘oyalarning yoshlar ongiga kirib borish yo‘llari («soxta salafiylik» misolida) 16

Abdullatif ALLOQULOV
Moturidiylikda takvin sifati: ma’nosi va zotiy sifat bilan aloqasi 22

Qudratulloh SIDIQMETOV
Ilk takfirchi firqalarning shakllanishi va ularning xatarlari 27

Botirkhon RUZIYEV
Imom Abu Mansur Moturidiyning ilmiy faoliyati tahlili 32

Abdulaziz YAKHSHILIKOV
Aqoid ilmi shakllanishi va rivojlanish bosqichlari 40

Oishakhon SALIMOVA
Imom Moturidiy va uning izdoshlari ilmiy merosining islom ilmlari rivojidagi o‘rni 47

Aydos YAKUPOV
Imom Abu Mansur Moturidiyning kalom ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi 50

Nasrullo TOKHTAYEV
Moturidiylik ta’limotining o‘ziga xos jihatlari 55

ISLOM HUQUQI

Muhammad Khodiy AKHMEDOV
Mazhablarning ahamiyati: dalillar va ilmiy asoslar 59

DINSHUNOSLIK

Bobomurod RUSTAMOV
O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni hamda diniy sohadagi davlat siyosati 63

Abdullaziz ABDUVAKHIDOV
Zamonaviy ta’limda ma’rifatning o‘rni 67

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

ISLOM TARIXI VA MANBASHUNOSLIK

Tokhir KHATAMOV
Xorijiy fondlardagi tasavvuf ta’limotiga oid manbalarning yurtimizda tuzilgan reyestrlarda tasnif etilishi 72

Ahmadkhon RASHIDOV
O‘rta asrlar islom olamida qiroat ilmining rivojlanishi va uning mashhur namoyandalari 81

Samariddin AKHMEDOV
Umar Jandiyning «al-Iqlid» asari metodologiyasi 89

Nozima IBRAGIMOVA
Abbosiylar davri elchilik munosabatlarining konseptual qoidalari 95

Khalilulloh SAIDAKBAROV
Ibn Kasirning «al-Bidoya va-n-nihoya» asarida foydalangan manbalari 102

Zarifjon GULOMOV
«Kitob at-tavhid» tanqidiy nashrlarida matniy tafovutlar va tahrir tamoyillari 107

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

MOTURIDIYLIK
https://maturidijournal.org/index.php/moturidiylik
https://doi.org/10.65944/MOTURIDIY/2026-M/14

Tokhir KHATAMOV[a]

[a] *Associate Professor*
International Islamic Studies Academy of Uzbekistan
11A, Abdulla Qodiriy Street, Tashkent, 100011, Uzbekistan
E-mail: tokhirkhatamov@gmail.com

XORIJIY FONDLARDAGI TASAVVUF TA'LIMOTIGA OID MANBALARNING YURTIMIZDA TUZILGAN REYESTRLARDA TASNIF ETILISHI

Annotatsiya. *Maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda tasavvuf ta'limoti allomalari ma'naviy-ma'rifiy merosini o'rganish va ilmiy tadqiq qilish sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli ishlar, erishilgan yutuqlar hamda istiqboldagi vazifalar tahlil qilinadi. Shuningdek, xorijiy davlatlar arxivlari, kutubxonalari, muzeylari va fondlarida saqlanayotgan tasavvuf ta'limotiga oid qo'lyozmalar, ularning ilmiy elektron reyestrlarga kiritilishi va ushbu reyestrlar orqali zamonaviy tadqiqotlarni olib borish imkoniyatlari haqida tahlillar keltiriladi.*

Milliy va xalqaro darajada tasavvufiy ma'naviy-axloqiy merosni saqlash, uni keng jamoatchilikka targ'ib qilish va yosh avlod o'rtasida tarqatish borasida amalga oshirilgan sa'y-harakatlar hamda kelgusida qo'yiladigan ustuvor vazifalar yoritiladi. Maqolada nafaqat ilmiy yangiliklar, balki mamlakatimiz tasavvufiy merosining jahon madaniyatidagi o'rni va ahamiyatiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: *tasavvuf, naqshbandiya, tariqat, ilmiy tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik, ilmiy maktab, qo'lyozma asar, elektron reyestr, madaniy boyliklar, arxiv, kutubxona, muzey, fond*

THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON SUFI TEACHINGS IN FOREIGN COLLECTIONS WITHIN THE REGISTERS COMPILED IN UZBEKISTAN

Abstract. *This article analyzes the extensive work carried out in Uzbekistan during the years of independence in studying and scientifically researching the spiritual and educational heritage of scholars of Sufi teachings, the achievements made, and the future tasks ahead. It also provides information about manuscripts containing the legacy of Sufi teachings preserved in archives, fundies, libraries, and museums of foreign countries, their inclusion in scientific electronic registries, and the opportunities these registries offer for conducting modern research.*

Efforts undertaken at the national and international levels to preserve the spiritual and moral heritage of Sufism, promote it to the wider public, and disseminate it among the younger generation are highlighted, along with the future priorities. The article emphasizes not only scientific innovations but also the significance and role of Uzbekistan's Sufi heritage in world culture.

Keywords: *Sufism, Naqshbandi order, scientific research, international cooperation, scientific school, manuscript work, electronic registry, cultural heritage, archive, library, museum, fund.*

Tasavvuf allomalarining ma’naviy-ma’rifiy merosi musulmon dunyosida inson axloqining shakllanishi va kamolotga erishishida ko‘p asrlar mobaynida muhim ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Bugungi globallashuv zamonida ham allomalarimizning ilmiy-ma’rifiy merosi xalqimizning, ayniqsa, yoshlarimizning axloqiy yetukligini ta’minlashda ijobiy ahamiyatga egadir.

Yurtimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng olimlar, tadqiqotchilar va ziyolilar qatlami tasavvuf allomalari merosini tarjima qilish, sharhlash, ommaviy axborot vositalarida targ‘ib etishda bir qator ijobiy yutuqlarga erishdilar. Jumladan, ko‘plab monografiyalar, kitoblar, ilmiy-ommabop risolalar, maqolalar chop etildi va 100 dan ortiq dissertatsiya himoya qilindi. Shuningdek, respublika va xalqaro miqyosda anjumanlar tashkil etilib, allomalarning tavallud sanalari umumdavlat miqyosida nishonlandi.

Ammo yurtimiz va xorijiy davlatlar arxivlari, kutubxonalari, muzey va fondlarida saqlanayotgan tasavvuf ta’limoti merosiga oid qo‘lyozmalar, ilmiy elektron reyestrlar hajmining kattaligi bu sohada hali qilinishi kerak bo‘lgan ishlar ko‘lami juda katta deb taxmin qilish uchun asos bo‘lmoqda.

Birgina yurtimizda saqlanayotgan qo‘lyozmalar reyestrlarining o‘zida juda ulkan meros jamlaganini ko‘rish mumkin. Jumladan, musulmon dunyosida mashhur bo‘lgan naqshbandiylik tariqati bo‘yicha istiqlolning dastlabki yillarida «Naqshbandiya tariqatiga oid qo‘lyozmalar fihristi» (Sh.Boboxonov, Abdulaziz Mansur., 1993) «Movarounahr» nashriyotida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va O‘zbekiston Respublikasi Islom hamkorlik fondi ko‘magida Shamsuddinxon Ziyovuddinxon o‘g‘li Boboxonov, Abdulaziz Dadajon o‘g‘li Mansurovlar muallifligida tayyorlanib 1993-yilda 1000 (ming)ta nusxada nashr etildi.

Fihristda 197 ta tasavvufiy asar nusxalari haqida ma’lumotlar to‘plangan bo‘lib, bu nusxalar haqida 5-10 tagacha kodikologik ma’lumotlar taqdim etilgan. Jumladan, «Anis at-tolibin va uddat as-solikin» («Toliblar oshnosi va soliklar rahnomasi») asarining 27 ta nusxasi haqida ma’lumotlar taqdim etilgan bo‘lib, bu asar haqida ko‘pi bilan 9 tagacha kodikologik ma’lumotlar berilgan. Shuningdek, SVR (A.A.Semenova, 1952) da ro‘yxatga olingani ham alohida qayd etib o‘tilgan.

O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar fondida XVIII-XX asrlardagi tasavvuf allomalari merosiga oid 2009 ta (ikki ming to‘qqiz) qo‘lyozma asarlar (2000-yil holatiga ko‘ra) ro‘yxatga olingan (Mualliflar, 2000).

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasidagi Manbalar xazinasi bo‘limida saqlanayotgan qo‘lyozmalar fondida tasavvuf allomalari merosiga oid 70 ta asar (M.Usmonov., 2023) saqlanmoqda (2023-yil holatiga ko‘ra). Umuman olganda, yurtimizning 80 dan ortiq muassasasida 45 mingga yaqin qo‘lyozma va 70 mingdan ziyod toshbosma asarlar saqlanmoqda. Ushbu asarlarning qanchasi tasavvuf ta’limotiga oid ekani hozircha noaniq bo‘lib, bugungi kunda ham yetarlicha tadqiq etilmagan. Shuningdek, xalqimiz xonadonlarida saqlanib qolayotgan qo‘lyozma va toshbosma asarlarning aniq miqdorini aytish ham murakkab jarayon hisoblangani sababli ham yuqoridagi raqamlar ham nisbiy ahamiyat kasb etib, yanada ortib borish xususiyatiga ega hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda, 40 dan ortiq xorijiy davlatlarda saqlanayotgan O‘zbekistonga oid 10000 dan ortiq madaniy boyliklar aniqlangani yurtimiz ilm-fan sohasidagi ijobiy yutuqlardan biri bo‘lmoqda. Tadqiqotlar natijasida ko‘plab xorijdagi asarlarning ilmiy tavsifi tuzildi va ular elektron reyestrga kiritildi (R.Bahodirov, Reyestr, 2024). O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligining loyihasi (INV, 2019) doirasida «O‘zbekistonga oid xorijdagi qo‘lyozma asarlar reyestri»ning I-III jildlari nashr etildi (R.Bahodirov, Reyestr, 2020, 2023, 2024.). Ushbu reyestrda jami 3159 ta asar ro‘yxatga olinib o‘zbek, ingliz, rus tillarida nashr etildi. Ro‘yxatga olingan asarlar orasida bevosita tasavvuf ta’limotiga oid asarlar 100 dan ortiqni tashkil etib, bu haqida maqolani asosiy qismida kengroq to‘xtalib o‘tilgan.

Yurtimiz o‘tmishiga oid tarixiy-madaniy boyliklar bir necha asrlardan buyon jahonning turli mintaqalarida, jumladan, Amerika, Afrika, Yevropa, Osiyo va hatto Avstraliyaga ham tarqalgani ushbu mintaqalardagi merosni alohida e’tibor bilan tadqiq etishni talab etmoqda. Bugungi kunda tarixiy merosimiz insoniyatning madaniy boyligi sifatida jahonning 40 dan ortiq mamlakatidagi ilmiy muassasa, muzey, arxiv, kutubxona, jamg‘arma (fond) va jamlanmalar (kolleksiya)da saqlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-iyundagi «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazini tashkil etish to‘g‘risida»gi qarori

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

(PQ-3074, 2017) dunyo ilm-faniga katta xizmatlarni qo‘shgan ma’naviy-madaniy merosimizni yana o‘rganish, xalqimizga unutilgan tariximizni yangi manbalar asosida taqdim etish va bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarish imkonini berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi (PQ-4730, 2020) tomonidan A-VM-2019-15 raqamli «O‘zbekistonga oid xorijda saqlanayotgan madaniy boylik reyestrini yaratish, nodir qo‘lyozma asarlarning faksimilesini nashr etish» loyihasi doirasida tayyorlanib, keng jamoatchilikka 2020-yilda taqdim etilgan «O‘zbekistonga oid xorijdagi qo‘lyozma asarlar reyestri»ning I jildi O‘zbekistonga oid xorijdagi qo‘lyozma asarlarga taalluqli ma’lumotlarni qamrab olgan. Tadqiqotlar natijasida tuzilgan reyestrni ilk bor o‘zbek, ingliz va rus tillarida nashr etishdan asosiy maqsad undan keng miqyosda O‘zbekiston xalqi va ilmiy jamoatchilikka, O‘zbekiston madaniy boyliklariga oid tadqiqot olib borayotgan xorijlik va mahalliy olimlar tomonidan insoniyat sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi bilan qiziquvchi barcha ma’rifat egalari foydalanishlarini ta’minlashdir.

Reyestrning ilmiy ishonchlilik darajasi, manbaviy asoslari ham muhim ahamiyat kasb etib, loyiha doirasida bu masalaga ham e’tibor qaratilganini ko‘rish mumkin. Asarlar haqida ma’lumotlarni aniqlash va to‘plashda turli manbalar, xususan, yurtimiz va xorijdagi turli nashrlar, maqolalar, risolalar, kataloglar, madaniy boyliklarimiz saqlanayotgan muassasalarga ilmiy xizmat safarlari hamda ularning veb-saytlaridan foydalangan holda chet elda saqlanayotgan O‘zbekiston tarixi va madaniyatiga oid madaniy boyliklarning ilmiy tavsifiga doir to‘liq ma’lumotlar bazasi asosida ushbu reyestrning tayyorlangani o‘zbekistonlik olimlar va tadqiqotchilar tomonidan keng doirada ilmiy-amaliy tadqiqot ishlari amalga oshirilganini ko‘rsatadi.

Reyestrdagi tasavvuf ta’limoti allomalari tomonidan yozilgan yoki ularning hayoti va faoliyatiga bag‘ishlangan asarlar bevosita ushbu maqolaning tadqiqot obyekti bo‘lib, reyestrdagi tasavvufiy manbalarni o‘rganish maqolada ustuvorlikni kasb etadi.

Tasavvuf ta’limoti allomalariga oid to‘ldirilgan yangi ma’lumotlarni reyestrdan qidirishda reyestrning o‘ziga xos jihatlarini ham e’tiborga olish muhim hisoblanadi. Jumladan, reyestrda qo‘lyozma asarlar haqidagi ma’lumotlar bayon qilishda asarlar olingan manbalarda keltirilgan barcha jihatlarni o‘zgartirmasdan, ya’ni berilgan ma’lumotlarni ayni shaklida saqlagan holda qayd etishga asoslangan. Qo‘lyozmalar haqidagi ma’lumotlar o‘z ichiga bir qator jihatlarni qamrab olgani bois, ularning muayyan tartibda berilishi lozimligini e’tiborga olib, barcha ma’lumotlarni, jumladan, qo‘lyozma saqlanayotgan mamlakat, u yerdagi tashkilot yoki muassasa, jamg‘arma yoki jamlanma, olimning ismi, asarning nomini o‘zbek tili alifbosi tartibi asosida keltirilgan. Har bir tavsifda tartib raqami va bu uslub nashrda boshidan oxirigacha uzluksiz ketma-ketlikda davom ettirilgan. YA’ni, bir mamlakatdagi muayyan tashkilot tugaganidan so‘ng ikkinchi tashkilotga yoki keyingi mamlakatdagi qo‘lyozma tavsifi navbatdagi tartib raqami bilan berilgan.

Reyestrning I jildida jami 1001 ta qo‘lyozma kiritilgan bo‘lib, ular muallifning ismi, asar mavzusi yoki yozilgan davri bo‘yicha tartiblanmagan. Ammo ko‘rsatkichlar vositasida tegishli asarni aniqlab olish mumkin. Shu bilan birga, ingliz va rus tillarida ham tavsif berilgani asar haqida xalqaro ma’lumotlar bazasidan yangiliklarni izlash topish imkoniyatlarini oshiradi.

Reyestrning I jildiga kiritilgan asarlar nafaqat ro‘yxatga olingan, balki bir qator asarlarning elektron nusxalari o‘zaro kelishuv va memorandumlar asosida O‘zbekistonga olib kelingani tariximizni yanada chuqurroq o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, loyiha doirasida tadqiqot ishlarini olib boruvchi bir guruh olimlar jamoasining Turkiya va Germaniyaga amalga oshirgan ilmiy xizmat safarlari natijasida yurtimiz allomalarining 24 tadan ortiq asari olib kelingan bo‘lib, qo‘lyozmalar orasida tasavvuf allomasi Hakim Termiziyning Anqara universiteti kutubxonasi fondida saqlanayotgan asarlari, Ya’qub Charxiyning «Tafsiri Charxiy» kabi tasavvufiy tafsirga oid asari Germaniyadan olib kelinganini alohida ta’kidlab o‘tish mumkin.

2024-yilga kelib Reyestrning II va III jildlari nashr etildi. I jildda foydalanilgan uslub asosida reyestr II va III jildlari tartiblangani reyestrning barcha jildlaridan foydalanishni yengillashtiradi. II jildning I jilddan farqli jihati faqatgina Turkiyadagi Anqara universiteti va Sulaymoniya kutubxonasiga oid bo‘lib, mazkur kutubxonada fondlar ko‘pligi bois, ulardagi qo‘lyozmalarni bayon etishda avval saqlanayotgan fond nomi, so‘ngra qo‘lyozmalarning ilmiy tavsifiga oid ma’lumotlar keltirilgan. II jild 1002 tartib raqamli qo‘lyozmadan boshlanib, 2020

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

tartib raqamli asarda yakunlangan va jami 1019 ta qo‘lyozmaning tavsifini o‘z ichiga olgan.

III jild 2021 tartib raqamli qo‘lyozmadan boshlanib 3159 tartib raqamli qo‘lyozmada yakunlangan va jami 1139 ta qo‘lyozmaning tavsifini o‘z ichiga olgan. Ushbu reyestrning noyob jihatlaridan biri, reyestr uchun olingan manbalarda keltirilgan ma’lumotlarni o‘zgartirmasdan ayni shaklida saqlagan holda qayd etishga asoslangani holda, imkon darajasida asarlarga oid ko‘proq ma’lumotlar, ya’ni asarning yozilgan yoki ko‘chirilgan vaqti, joyi, ko‘chirilish sababi, asar hajmi, varaqlar soni, hattot yoki ko‘chiruvchilarning ismi, tili, inventar raqami, shuningdek, xat turlariga oid ma’lumotlar kiritilgan.

Reyestrning II va III jildlariga tasavvuf ta’limotiga oid 50 dan ortiq asar kiritilgan. Mazkur jildlarda Hakim Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, Ya’qub Charxiy, Xoja Ahror Valiy, Boborahim Mashrab, So‘fi Allohyor kabi mutasavviflar asarlari hamda tasavvuf ta’limotiga oid turli qo‘lyozmalar mavjud.

Ushbu reyestrdagi ma’lumotlarni tahlil etishda bir qancha ilmiy yondashuvlar ko‘rib chiqildi, jumladan, manbalarni davrlar bo‘yicha, mualliflar va mavzular bo‘yicha guruhlarga ajratib o‘rganish yoki manbalarning dunyo bo‘yicha tarqalishi, joylashuv geografiyasi bo‘yicha tahlil qilish kabi uslublar mulohaza qilindi. Xalqimizga va ilmiy jamoatchilikka qaysi mamlakatda nechta va qanday tasavvufga oid asarlar saqlanayotgani qiziqarli ekani e’tiborga olinib, tasavvuf manbalarini jahon fondlari geografiyasi asosida guruhlarga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq deb topildi. Chunki reyestrni tayyorlashning asosiy maqsadlaridan biri – bu xorijdagi tasavvuf ta’limotiga doir adabiyotlarni ro‘yxatga olish hamda xalqimizga yetkazish hisoblanadi. Mana shu jihatlar e’tiborga olinib, maqolada reyestrdagi tasavvufiy asarlar ajratib olingan holda o‘rganishga ham asosiy e’tibor qaratildi.

Tahlil natijasida tasavvufga oid asarlarning 30 dan ortiq xorijiy fondda saqlanayotgani aniqlandi. Ushbu fondlar Turkiya, Misr, Pokiston, Eron, Qozog‘iston, Germaniya, Angliya, Gruziya, Rossiya, Avstriya, Fransiya, AQSH kabi davlatlarda bo‘lib, mazkur davlatlar fondlari 100 dan ortiq tasavvufiy manbani qamrab oladi. Fondlar joylashgan davlatlar shartli ravishda uch guruhga ajratib olindi:

Musulmon mamlakatlari fondlari:

1. Turkiya fondlari. Istanbul shahri Sulaymoniya kutubxonasida saqlanayotgan «Nasoyim al-muhabbat» asari (№862 raqamda, O‘zbekistonga oid xorijdagi qo‘lyozma asarlar reyestrining I-III jildlarida ro‘yxatga olingan raqami, adabiyotlar ro‘yxati kengayib ketgani sababli, reyestrdagi tartib raqami ham berib o‘tildi) va «Lison at-tayr» asari (Navoiy, 2024) nusxasi, Sulaymoniya kutubxonasi Asad Afandi fondida «Tafsiri Xoja Muhammad Porso» asari (№2736 raqamda), Mehmet Nuri Afandi fondida «Risola shayx Abi Sa’id ila Abi Ali ibn Sino» asari (№2793 raqamida), Nuruusmoniya fondida saqlanayotgan «Maktub ash-shayx al-orif Abi Sa’id ibn Abi al-Xayr ila ash-shayx Abi Ali ibn Sino» (№1676 raqamda) va «Risola fi-t-tasavvuf» asarlari (№1730 raqamda), To‘pqopi saroyi kutubxonasida saqlanayotgan «Lison at-tayr» asari nusxasini (№884 raqamda), «Nasoyim al-muhabbat» asar nusxasini (№892 raqamda) ko‘rish mumkin. Fotih markaz kutubxonasida saqlanayotgan «Xatm al-avliyo» asari (Hakim Termiziy, 2024) ko‘rish mumkin. Anqara shahri Anqara universiteti Til, tarix va geografiya fakulteti kutubxonasi fondida saqlanayotgan «Risola dar odobi ahli tasavvuf» (Aziz ibn Muhammad Nasafiy, 2023), «Risola dar suluk» (№1328 raqamda) va «Risola sharoiti chihila va odobi zikr va uruji ahli tasavvuf» (№1339 raqamda) asarlari. Shuningdek, Shayx Najmiddin Kubroning «Risola fi tasavvuf» (Najmiddin Kubro, 2023) asarini ushbu kutubxonaning Mustafa Con A. Fondida saqlanayotgan «Risola silsila an-Naqshbandiya» asarini (№1303 raqamda) va «Sharhi rubo’iyi Abu Sa’id ibn Abulxayr» (Xoja Ubaydulloh Ahror, 2023) asarini ko‘rish mumkin.

2. Eron Islom Respublikasi fondlari. Eron Milliy kutubxonasida saqlanayotgan «Kulliyot» asarini (№2015 raqamda), «Majlisi sho‘roi islomiy» kutubxonasida saqlanayotgan «Mantiq at-tayr» (aslida Lison at-tayr, iqtibosga qarang) asari (№935 raqamda) nusxalarini ko‘rish mumkin. Guliston kutubxonasida saqlanayotgan «Kulliyot» (№1949 raqamda), Tehron universiteti markaziy kutubxonasida saqlanayotgan «Odob at-tariqat» (Abduxoliq G‘ijduvoniy, 2024), «Divoni Xoja Ahmad» (№3110 raqamda), Tehron universiteti Yuridik fakultetida «Odob at-tariqat» (№3150 raqamda), Mashhad shahridagi Ostoni Quds Razaviy kutubxonasida saqlanayotgan «Odob at-tariqat» (№3070 raqamda) va «Divoni Shoh Mashrab» kabi (№3071 raqamda) asarlar saqlanmoqda.

3. Misr Arab Respublikasi fondlari. Misr Milliy kutubxona va arxivlarida saqlanayotgan «Ilm al-avliyo» (№2315 raqamda) va «Masala fi-t-tasavvuf» (№2271 raqamda) asarlari aniqlangan.

4. Pokiston Islom Respublikasi fondlari. Karachi shahridagi Qo‘lyomalar kutubxonasi, Muftiy

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Muhammad Shafe' fondida saqlanayotgan «Tarixhoi visoli avliyoulloh» (Muhammad Fozil Termiziy Akbarobodiy, 2024) asari reyestrga kiritilgan.

Yevropa davlatlari fondlari:

1. Germaniya fondlari. Berlin shahridagi Berlin davlat kutubxonasida saqlanayotgan «Sabot al-ojizin» asari (№406 raqamdagi), «Lison at-tayr» (№1049 raqamda), «Tarjimai risolai Ya'qub Charxiy» va «Tafsiri Ya'qub Charxiy» (№1171-1172 raqamlarda), «Tarjimai silsila al-orifin» (№1098 raqamda), «Kitob at-tazkiya» (№1185 raqamda), Berlin davlat kutubxonasi Tyubingen fondida saqlanayotgan «Silsila al-orifin va tazkira as-siddiqin» (Mavlono Muhammad Qozi, 2023) va ushbu fondda saqlanayotgan «Risolai volidiya» asarlari (№1191 raqamda). Myunxen shahridagi Bavariya davlat kutubxonasida saqlanayotgan «Xikmatlar» (№1015 raqamda), Bonn shahridagi Bonn universiteti va davlat kutubxonasida saqlanayotgan «Risola dar bayoni suluk» (№2112 raqamda) va «Fasl al-xitob» (Muhammad Porso, 2024), Marburg shahridagi Marburg davlat kutubxonasida saqlanayotgan «Tarjimai Tafsiri Ya'qub Charxiy» (№410 raqamda) kabi asarlarni ko'rish mumkin.

2. Angliya fondlari. London shahridagi Britaniya kutubxonasida saqlanayotgan «Nasoyim al-muhabbat min shamoil al-futuvva» (№266 raqamda) va Oksford shahridagi Bodlean kutubxonasida «Lison at-tayr» asarlari (№64 raqamda) aniqlangan.

3. Avstriya fondlari. Naqshbandiylik tariqatining yirik vakili, Xoja Bahouddin Naqshbandning shogirdi, izdoshi va naqshbandiylik ta'limotining nazariyotchi va sharhlovchi olimlaridan biri hisoblangan Xoja Muhammad Porsoning Vena shahridagi Avstriya milliy kutubxonasida saqlanayotgan «Fasl al-xitob», «Qudsiya» (№7 va 8 raqamlarida), Ya'qub ibn Usmon Charxiyning «Tafsiri Charxiy» tafsiri (№10 raqamda) va «Latoif at-tavoif» (№1002 raqamda) asarlari saqlanmoqda.

4. Fransiya fondlari. Parij shahridagi Fransiya milliy kutubxonasida saqlanayotgan «Lison at-tayr» asarining nusxalari (№1926-27 raqamlarda) aniqlangan.

5. AQSH fondlari. Nyu York shahridagi Metropoliten san'at muzeyida Shayx Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» asari (№20 raqamda) va uning yana bir nusxasi (Shayh Farididdin Attor, 2020) saqlanmoqda.

MDH mintaqasida joylashgan davlatlar fondlari:

1. Ozarbayjon Respublikasi fondlari. Boku shahridagi Ozarbayjon Milliy fanlar akademiyasi Muhammad Fuzuliy nomidagi qo'lyozmalar institutida saqlanayotgan Alisher Navoiyning «Lison at-tayr» asari nusxasini (№506 raqamda) ko'rish mumkin.

2. Qozog'iston Respublikasi fondlari. Olmaota shahridagi Qozog'iston Milliy kutubxonasida saqlanayotgan Ibrohim Kogoniyning «Risola dar tasavvuf» (№970 raqamda) va «Risola tariqat» kabi noyob (№976 raqamda) asarlari reyestrda ro'yxatga olingan.

3. Gruziya Respublikasi fondlari. Tbilisi shahridagi Korneli Kekelidze nomidagi Gruziya Milliy qo'lyozmalar markazida saqlanayotgan Shayh Najmiddin Kubroning «Risola fi at-tariq» asari (№465 raqamda) aniqlangan.

4. Rossiya Federatsiyasi fondlari. Sankt-Peterburg shahridagi Rossiya Milliy kutubxonasining Qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan «Divoni hikmat» asari nusxalari (№2341-43 raqamlarda), «Rashahot ayn al-hayot» (№2345 raqamda), «Tazkira al-avliyo» (№673 raqamda) va Muhammad Sodiq Suriy Qodiriyning «Manoqib Hazrat G'avs al-A'zam» kabi (Muhammad Sodiq Suriy Qodiriy, 2020) asarlarni ko'rish mumkin. Shuningdek, Ali ibn Husayn Voiz Koshifiyning «Rashahot ayn al-hayot» (№566 raqamda), Xoja Ubaydulloh Ahrorning «Risolai volidiya» (№675 raqamda), «Lison at-tayr» asarining uchta nusxasi (№589-591 raqamlarda) ham mavjud.

Qozon shahridagi Qozon Federal universiteti N.I.Lobachevskiy nomli ilmiy kutubxonasi qo'lyozmalar va nodir kitoblar bo'limida So'fi Allohyorning «Sabot al-ojizin» asarining bir nechta nusxalari (№740-746 raqamlarda) saqlanadi.

Sankt-Peterburg shahridagi Rossiya Fanlar akademiyasining Sharq qo'lyozmalari institutida «Divoni Mashrab» (№2415 raqamda), «Boqirg'on kitobi» (№2423-2439 raqamlarda), «Tazkira al-avliyo» (№2443 raqamda), «Lison at-tayr» (№2385 raqamda), «Masnaviyi ma'naviy» (№2409 raqamda), «Maslak al-orifin» asarlari (Muhammad ibn Ahmad ibn al-Buxoriy, 2020) nusxalari saqlanmoqda.

Qozon shahridagi Qozon Federal universiteti N.I.Lobachevkiy nomidagi Ilmiy kutubxonasida «Ba Mavlono Ya'qub Charxiy» (№2498 raqamda), «al-Insoniya fi tariqat an-naqshbandiya» (№2603 raqamda), «Maktubot» va «Maktuboti Shayx Ma'sum» (Maktuboti Shayx Ma'sum, 2023), «Maqomati Shoh Naqshband» (Abulmuhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali Boqir, 2024), «Murod al-orifin» (№2579-2589 raqamlarda), «Odob

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

as-solikin» (Ahmad ibn Jaloliddin Kosoniy, 2024), «Rashahot ayn al-hayot» (№2592-2596 raqamlarda), «Risola» (№2540 raqamda), «Risola li Hazrat Xoja Ubaydulloh al-Ahror dar tariqati Xojagon» (№2599 raqamda), «Tafsiri Xoja Porso» (№2590 raqamda), «Tafsiri Charxiy» (№2604-2605 raqamlarda), «Shajarai mashoyixi Chishtiya» (№2496 raqamda), «Shajarai Naqshbandiya» (№2496 raqamda), «Sharh at-Ta'arruf li mazhab ahl at-tasavvuf li Abi Bakr Muhammad ibn Ishoq al-Kalobodiy» kabi (Abu Ibrohim ibn Ismoil ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Buxoriy, 2024) asarlarning nusxalari aniqlangan.

Sankt-Peterburg shahridagi Sankt-Peterburg universiteti kutubxonasi Qo'lyozmalar fondida «Kitobi maqomati mashoyix» (№2456 raqamda), «Rashahot ayn al-hayot» (№2464-2466 raqamlarda), Qozon shahridagi Qozon Federal universitetining M.Gorkiy nomidagi ilmiy kutubxonasida «Risola» kabi noyob asarlarning (№719 raqamda) nusxalari saqlanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan fondlardagi asarlarni tahlil qilsak, turli davrga va mualliflarga oid ko'plab asarlarni ko'rish mumkin. Mazkur fondlarning ba'zilarida bir yoki bir nechta asar saqlanayotgan bo'lsa, boshqa fondlarda ko'plab asarlar mavjud. Jumladan, MDH mintaqasida Gruziyada birgina Shayx Najmiddin Kubroning «Risola fi-t-tariq» asari aniqlangan bo'lsa, O'zbekistondan olisda Yevropaning markaziy mintaqasida joylashgan eng kichik davlatlarni biri Avstriyada naqshbandiylik ta'limotida alohida o'ringa ega bo'lgan Xoja Muhammad Porsoning «Fasl al-xitob», «Qudsiya» asarlari hamda Ya'qub ibn Usmon Charxiyning «Tafsiri Charxiy» tafsiri, Ali Safiyning «Latoif at-tavoif» kabi asarlari saqlanadi.

Bu asarlarning dunyo fondlariga tarqab ketishiga sabab bo'lgan omillari xilma-xil bo'lib, quyida asosiy 3 ta omilni sanab o'tish mumkin:

- ilmiy tadqiqot maqsadida kutubxona va fondlar tashkil etish;
- jamlanmalar (kolleksiyalar) yig'ish;
- mustamlakachilik siyosati.

Nodir asarlar eng ko'p jamlangan davlat Rossiya bo'lib, Chor Rossiyasi va SHo'rolar boshqaruvi davrida erk va ozodligimizning cheklanishi ko'plab milliy boyliklarimizning, qo'lyozmalarimizning yurtimizdan olib ketilishiga sabab bo'lgan.

Mazkur reyestrda Rossiya Milliy kutubxonasi Qo'lyozmalari fondi, Qozon Federal universiteti N.I.Lobachevskiy nomli ilmiy kutubxonasi qo'lyozmalar va nodir kitoblar bo'limi, Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalari instituti, Qozon Federal universiteti N.I.Lobachevkiy nomidagi Ilmiy kutubxonasi, Sankt-Peterburg universiteti kutubxonasi qo'lyozmalar fondi, Qozon Federal universitetining M.Gorkiy nomidagi ilmiy kutubxonalaridagi tasavvuf ta'limotiga oid 40 ga yaqin manba sanab o'tilgan xolos. Bu davlatga olib ketilgan tarixiy manbalarning aniq sonini aytish ham murakkab ish bo'lib, kelgusidagi tadqiqotlar, ilmiy safarlar va davlatlar o'rtasida o'zaro kelishuvlar asosida manbalar sonini aniqlash hamda yurtimizga qaytarish mumkin.

Rossiya Federatsiyasidan keyingi o'rinda Turkiya Respublikasidagi manbalar miqdori katta bo'lib, bu davlatdagi ko'plab fondlarda tasavvuf ta'limotiga oid asarlar saqlanmoqda. Turkiya fondlaridagi asarlarni tadqiq etish Rossiya fondlaridan qisman farq qilib, Turkiyada yurtimizga doir manbalarni tarixiy mushtaraklik va islom diniga hamohang tarzda, uyg'unlashtirilgan holda o'rganishga ham katta e'tibor qaratilishi bilan farqlanadi.

Reyestrda Misr, Pokiston, Ozarbayjon va Qozog'iston kabi davlatlar fondlarida saqlanayotgan tasavvuf manbalari kam berilgan. Ammo boshqa reyestr va fihristlarda Markaziy Osiyo tasavvuf maktablariga oid yuzlab, minglab manbalarni ko'rish mumkin. Jumladan, O'zbekistonga oid al-Azhar universiteti (Misr) kutubxonasidagi qo'lyozma asarlar reyestrida yurtimizga oid 2428 ta asar ro'yxatga olingan.

Ajdodlarimiz tomonidan yozilgan tasavvufga oid ko'plab manbalarning dunyo davlatlari fondlarida saqlanayotgani fuqarolarda faxr, milliy g'urur tuyg'usini uyg'otishi bilan birga, olimlar va ziyolilar zimmasiga ushbu asarlarga daxldorlik, asl vorislik tuyg'usi nuqtai-nazaridan yondashish, ularni o'rganish va targ'ib etish, ularning mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish vazifasi va mas'uliyatini ham yuklamoqda.

Mazkur vazifalarning debochasi sifatida olimlar tomonidan o'rganilayotgan reyestr tuzildi. Allomalar merosiga oid asarlar AQSH, Germaniya, Angliya, Fransiya, Avstriya kabi davlatlar fondlaridagi manbalar asosida ro'yxatga olindi. Jumladan, Germaniyada joylashgan Berlin davlat kutubxonasidan «Sabot al-ojizin», «Lison at-tayr», «Tarjimai risolai Ya'qub Charxiy», «Tafsiri Ya'qub Charxiy», «Tarjimai Silsila al-orifin», «Kitob at-tazkiya», shuningdek, mazkur kutubxonaning Tyubingen fondida saqlanayotgan «Silsila al-orifin va tazkira as-siddiqin», «Risolai volidiya» asarlari,

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Bavariya davlat kutubxonasida «Xikmatlar», Bonn universiteti va davlat kutubxonasida «Risola dar bayoni suluk», «Fasl al-xitob», Marburg davlat kutubxonasida «Tarjimai Tafsiri Ya'qub Charxiy» kabi asarlar aniqlanib, keng ilmiy jamoatchilik, tasavvuf yo'nalishida tadqiqot ishlarini olib borayotganlar va xalqimiz uchun katta ilmiy yangilik sifatida taqdim etildi.

Angliyaning Britaniya kutubxonasida «Nasoyim al-muhabbat min shamoyil al-futuvva» va Bodlean kutubxonasida «Lison at-tayr» asarlari, AQShning Metropoliten san'at muzeyida Shayx Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» asari va uning nusxasi, Fransiya milliy kutubxonasida «Lison at-tayr» asari nusxalari ham aniqlanib jamoatchilikka yetkazildi.

Xorijiy fondlarda So'fi Allohyorning «Sabot al-ojizin» va Ya'qub Charxiyning «Tafsiri Ya'qub Charxiy» asarlari, shoirlar sultoni Alisher Navoiy tomonidan yozilgan tasavvuf adabiyotiga doir «Lison at-tayr» asarining ko'plab nusxalari mavjudligi va ushbu asarlarning dunyo bo'ylab keng tarqalishida bir qancha omillarni sanab o'tish mumkin. Jumladan, Alisher Navoiy va So'fi Allohyor ijodiy mahoratining yetukligi, «Lison at-tayr», «Tafsiri Ya'qub Charxiy» asarlarining Markaziy Osiyodagi ikkinchi Renessans davrida yozilgani, dunyo xalqlarining tasavvuf ta'limotiga bo'lgan qiziqishlari kabi jihatlarni aytib o'tish mumkin.

Reyestrdagi asarlarni davrlarga ko'ra tahlil qilsak, Temuriylar davridagi ikkinchi Renessans davri adabiyotlarining ko'proq ekanini ko'rish mumkin. Bu davrga kelib Markaziy Osiyoda naqshbandiylik tariqati katta mashhurlikka erishib, Temuriy hukmdorlar o'rtasida naqshbandiy shayxlariga murid bo'lish ijtimoiy-siyosiy zarurat darajasiga ko'tarilgani bilan xulosalash mumkin.

XVIII–XIX asrlarga oid asarlar reyestrda deyarli qayd etilmagan bo'lib, bu holatni sof tasavvufiy shayxlar va olimlarning kamaygani yoki yurtni tark etgani bilan, shuningdek, ilm-fan, shariatga oid ilmlar va tasavvufiy muhitning tanazzulga yuz tutgani bilan izohlash mumkin.

Tahlillardan xulosa qilib, shuni aytish mumkinki, istiqlol yillarida tasavvuf ta'limotiga oid tarixiy manbalar, ayniqsa naqshbandiya tariqatiga oid tarixiy asarlarning o'rganilishi va qayta tiklanishi yo'lida muhim qadamlar qo'yildi. Xususan, xorijiy mamlakatlar arxivlari, fondlari, kutubxonalari va ilmiy muassasalarida saqlanayotgan yurtimiz tasavvuf allomalariga taalluqli qo'lyozmalarning aniqlanishi, ularning ilmiy tavsiflarini o'z ichiga olgan elektron va bosma reyestrlarning nashr etilishi mamlakatimiz ilm-fani uchun ijobiy ahamiyatga ega bo'ldi.

Reyestrlarda keltirilgan ma'lumotlar tasavvuf ta'limotiga oid asarlarni tarixiy-qiyosiy va manbashunoslik jihatdan tahlil qilish imkonini bermoqda. Reyestrning I–III jildlari asosida 100 dan ortiq tasavvufiy asarlarning aniqlangani mamlakatimiz tadqiqotchilariga yangi tadqiqot yo'nalishlarini belgilashda yordamchi manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, bu borada yana bir qator vazifalar dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, xorijda saqlanayotgan noyob asarlarning elektron nusxalarini olib kelish, ularni ilmiy tanqidiy matn asosida nashr etish, tarjima va sharhlash ishlarini kuchaytirish, shuningdek, bu manbalar bazasini ta'lim muassasalari va keng jamoatchilik uchun ochiq ma'lumotlar bazasiga aylantirish kabi ishlarni amalga oshirish ham muhim ahamiyatga egadir.

Ushbu ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlashda, eng katta mas'uliyat va mehnat tasavvufshunos, islomshunos, manbashunos, tarixchi olimlarimiz hamda ziyolilarimiz zimmasida ekanligini alohida ta'kidlagan holda, olimlarimizni yanada qo'llab-quvvatlash va ehtirom ko'rsatish Uchinchi renessans poydevori mustahkam bo'lishida ulkan ahamiyat kasb etadi.

Zero, tasavvuf ta'limoti – xalqimiz ma'naviy olamining yuksalishida, yosh avlodning axloqiy tarbiyasida muhimligi bilan dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birgalikda, mazkur merosning chuqur va har tomonlama ilmiy-ma'rifiy jihatdan o'rganilishi, xalqaro miqyosda ilmiy muomalaga kiritilishi nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyat sifatida ham xizmat qiladi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. А.А.Семенова. (1952). СВР – «Собрание восточных рукописей Академии наук Узбекской ССР» / под ред. и при участии А. А. Семенова ; Акад. наук Узбек. ССР, Ин-т востоковедения. – Ташкент, – Т. - 440 с., 21 л.
2. Абдухолиқ Ғиждувоний. (2024). Одоб ат-тариқат. Форс тилида. Инв. № 8632/II. // Форс тилида. Инв. № 391/XIX.
3. Абу Иброҳим ибн Исмоил ибн Муҳаммад ибн Абдуллоҳ ал-Бухорий. (2024). Шарҳ ат-Таъарруф ли мазҳаб аҳл ат-тасаввуф ли Аби Бакр Муҳаммад ибн Исҳоқ ал-Калободий. Форс тилида. Кўчирилган вақти – XIX аср. Хат тури – настаълиқ. 330 варақ. Инв. № Ф-267-(1820).
4. Абулмуҳсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али Боқир. (2024). Мақомати Шоҳ Нақшбанд. Форс тилида. Кўчирилган йили – 1292/1875-1876. Хат тури – насх. 90 варақ. Инв. № Ф-94 (640).
5. Азиз ибн Муҳаммад ан-Насафий. (2023). Рисола дар

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

одоби аҳли тасаввуф. Инв. № 388/IX.
6. Ал-Ҳаким ат-Термизий . (2024). Хатм ал-авлиё. Кўчирилган йили – 947/1540-1541. 16(153б-168б) варақ. Инв. № 6322/VI. // Кўчирилган вақти – XVI аср. 14(240а-253а) варақ. Инв. № 3750/VIII.
7. Аҳмад ибн Жалолиддин Косоний. (2024). Одоб ас-Соликин. Форс тилида. Кўчирувчи – Убайдуллоҳ ибн Калимуллоҳ ал-Булғорий ал-Ғазоний ал-Алдирмиший. Кўчирилган йили ва жойи – 1256/1840-1841, Бухоро. Хат тури – настаълиқ. 22 (47-68) варақ. Инв. № Ф-210 (1354).
8. ИНВ. (2019). Ўзбекистон Республикаси Инновацион ривожланиш вазирлигининг «Ўзбекистонга оид хорижда сақланаётган маданий бойлик реестрини яратиш, нодир қўлёзма асарларнинг факсимилесини нашр этиш лойиҳаси. Тошкент: Тасвир.
9. М.Усмонов. (2023). I-II жилдлар. Манбалар хазинаси қўлёзмалар каталоги. Ўзбекистон халқаро исломшунослик академиясидаги Манбалар хазинаси бўлимида сақланаётган қўлёзмалар катологи. Т.: Б. 1-472, 1-604.: ЎзХИА.
10. Мавлоно Муҳаммад Қози. (2023). Силсилат ал-орифин ва тазкират ас-сиддиқин. 179 варақ. Инв. № Ms. or. quart. 1486/IV. .
11. Мактуботи Шайҳ Маъсум. (2023). Тузувчи – Ҳожи Муҳаммад Ашур ибн Ҳожи Мирзо Муҳаммад ал-Бухорий ал-Ҳусайний. Кўчирувчи – Ғулом Нақшбанд.Кўчирилган йили – 1201/1786-1787. Хат тури – настаълиқ. 193 варақ. Инв. № Ф-307(2259).
12. Муаллифлар. (2000). Handlist: of Sufi manuscripts (18-20 centuries) in the holding of the Oriental Institute, Acedemy of Sciences, Republic of Uzbekistan. Краткий каталог: Суфийских произведений XVIII-XX вв. из собрани. (Biruni). – Berlin: «Das arabische Buch»,.
13. Муҳаммад ибн Аҳмад ибн ал-Бухорий. (2020). Маслак ал-орифин. Форс тилида. Кўчирувчи – Мулло Неъматуллоҳ ибн Султон Саъдиддин. Кўчирилган вақти – XIX асрнинг 1-ярми. Хат тури – настаълиқ. 105 варақ. Инв. № Ф-81 (614).
14. Муҳаммад Порсо. (2024). Фасл ал-хитоб. 7 (44б-50а) варақ. Инв. № So 223.
15. Муҳаммад Содиқ Сурий Қодирий. (2020). «Манокиб Ҳазрат Ғавс ал-Аъзам». Кўчирилган йили – 1283/1866-1867. 112 варақ. Ф. 933. Инв. №77.
16. Муҳаммад Фозил Термизий Акбарободий. (2024). Тариххои висоли авлиёуллоҳ. Кўчирилган йили – 1287/1870-1871. 46 варақ. Инв. № 473/II.
17. Навоий, А. (2024). «Лисон ат-тайр». Истанбул: 35 (17б-51а) варақ. Фотиҳ. Инв. № 4056/IV.
18. Нажмиддин Кубро. (2023). Рисола фи тасаввуф. Инв. № 121/VII.
19. ПҚ-3074. (2017 йил 20-июн). Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 июндаги «Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистонга оид хориждаги маданий бойликларни тадқиқ этиш марказини ташкил этиш тўғрисида» ПҚ 3074-сон қарори. https://lex.uz/docs/323867. From lex.uz: https://lex.uz/docs/3238676
20. ПҚ-4730. (2020). Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 26 майдаги «Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ 4730-сон қарорига мувофиқ Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридан Маданият вазирлиги таркибига ўтказилди. Тошкент: Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 27.05.2020 й., 07/20/4730/0670-сон.
21. Р.Баҳодиров. (2020, 2023, 2024.). Реестр. Ўзбекистонга оид хориждаги қўлёзма асарлар реестри / The Register of Manuscripts Located overseas concerning Uzbekistan's Cultural Herritage / Реестр зарубежных рукописей, относящихся к Узбекистану. I-III жилдлар.:Т «TASVIR»
22. Р.Баҳодиров. (2024). Реестр. Тошкент: Ўзбекистонга оид Ал-Азҳар университети кутубхонасидаги қўлёзма асарлар реестри. Ўзбекистон Республикаси Маданий мерос агентлиги. «TASVIR» – МЧЖ «Colorpack»,- Б. 320.
23. Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. (2023). Хожа Убайдуллоҳ Аҳрор. Шарҳи рубоъийи Абу Саъид ибн Абулхайр. Инв. 369/ I. // Инв. 369/ II.
24. Ш.Бобохонов, Абдулазиз Мансур. (1993). Нақшбандия тариқатига оид қўлёзмалар фиҳристи. ЎзР ФА Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институти – Ўзбекистон Республикаси Ислом ҳамкорлик фонди. –Т.: «Мовароунаҳр», – Б. 122.
25. Шайҳ Фаридиддин Аттор. (2020). «Тазкираи авлиё». Форс тилидан таржима. Кўчирилган йили – 1285/1868-1869. 260 варақ. Ф. 933. Инв. №19.

REFERENCES

1. Semenova, A. A. (1952). SVR – Collection of Oriental Manuscripts of the Academy of Sciences of the Uzbek SSR (Vol. 1, 440 pp., 21 plates). Tashkent: Academy of Sciences of the Uzbek SSR, Institute of Oriental Studies.
2. Ghijduvaniy, Abdukholiq. (2024). Adab al-Tariqat [Manuscript, in Persian]. Inv. No. 8632/II; Inv. No. 391/XIX.
3. Al-Bukhari, Abu Ibrahim ibn Isma'il ibn Muhammad ibn Abdullah. (2024). Sharh al-Ta'arruf li-Madhhab Ahl al-Tasawwuf by Abu Bakr Muhammad ibn Ishaq al-Kalabadhi [Manuscript, in Persian, 19th century, Nastaʿliq script, 330 folios]. Inv. No. F-267-(1820).
4. Abulmuhsin Muhammad Baqir ibn Muhammad Ali Baqir. (2024). Maqamat-i Shah Naqshband [Manuscript, in Persian, copied in 1292 AH / 1875–1876 CE, Naskh script, 90 folios]. Inv. No. F-94 (640).
5. Nasafi, Aziz ibn Muhammad. (2023). Risala dar Adab-i Ahl-i Tasawwuf [Manuscript]. Inv. No. 388/IX.
6. Al-Hakim al-Tirmidhi. (2024). Khatm al-Awliya [Manuscript, copied in 947 AH / 1540–1541, 16 fols. (153b–168b); also copied in the 16th century, 14 fols. (240a–253a)]. Inv. Nos. 6322/VI and 3750/VIII.
7. Ahmad ibn Jalal al-Din Kasanī. (2024). Adab al-Salikin [Manuscript, in Persian, copied by Ubaydullah ibn Kalimullah al-Bulghari al-Ghazani al-Aldirmishi, copied in 1256 AH / 1840–1841 in Bukhara, Nastaʿliq script, 22 fols. (pp. 47–68)]. Inv. No. F-210 (1354).
8. Ministry of Innovative Development of the Republic of Uzbekistan. (2019). Project for Creating a Register of Cultural Assets Related to Uzbekistan Preserved Abroad and Publishing Facsimile Editions of Rare Manuscripts. Tashkent: «TASVIR»
9. Usmonov, M. (2023). Catalog of Manuscripts from the Treasury of Sources, Vols. I–II: Collection of Manuscripts Preserved in the Treasury of the Uzbekistan International Islamic Academy (Vol. I: pp. 1–472; Vol. II: pp. 1–604). Tashkent: Uzbekistan International Islamic Academy.
10. Mawlana Muhammad Qadi. (2023). Silsilat al-'Arifin wa

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

Tadhkirat al-Siddiqin [Manuscript, 179 folios]. Inv. No. Ms. or. quart. 1486/IV.
11. Shaykh Maʿsum. (2023). Maktubat-i Shaykh Maʿsum [Manuscript compiled by Haji Muhammad Ashur ibn Haji Mirza Muhammad al-Bukhari al-Husayni, copied by Ghulam Naqshband in 1201 AH / 1786–1787, Nastaʿliq script, 193 folios]. Inv. No. F-307 (2259).
12. Various Authors. (2000). Handlist of Sufi Manuscripts (18th–20th centuries) in the Holdings of the Oriental Institute, Academy of Sciences, Republic of Uzbekistan / Short Catalog of Sufi Works from the 18th–20th Centuries from the Collection (Biruni). Berlin: Das Arabische Buch.
13. Muhammad ibn Ahmad ibn al-Bukhari. (2020). Maslak al-ʻArifin [Manuscript, in Persian, copied by Mulla Niʿmatullah ibn Sultan Saʿd al-Din in the first half of the 19th century, Nastaʿliq script, 105 folios]. Inv. No. F-81 (614).
14. Muhammad Parsa. (2024). Fasl al-Khitab [Manuscript, 7 fols. (44b–50a)]. Inv. No. So 223.
15. Muhammad Sadiq Suriy Qadiriy. (2020). Manaqib-i Hazrat Ghawth al-Aʿzam [Manuscript, copied in 1283 AH / 1866–1867, 112 folios]. Fund 933, Inv. No. 77.
16. Muhammad Fazil Termizi Akbarabadi. (2024). Tarikhha-yi Visal-i Awliya Allah [Manuscript, copied in 1287 AH / 1870–1871, 46 folios]. Inv. No. 473/II.
17. Nava'i, A. (2024). Lisan al-Tayr [Manuscript, 35 fols. (17b–51a)]. Istanbul: Fatih Library, Inv. No. 4056/IV.
18. Najm al-Din Kubra. (2023). Risala fi Tasawwuf [Manuscript]. Inv. No. 121/VII.
19. President of the Republic of Uzbekistan. (2017, June 20). Resolution No. PQ-3074: On the Establishment of the Center for the Study of Cultural Assets Abroad under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. Retrieved from https://lex.uz/docs/3238676
20. President of the Republic of Uzbekistan. (2020, May 26). Resolution No. PQ-4730: On Measures to Improve the Activities of the Ministry of Culture of the Republic of Uzbekistan. Tashkent: National Database of Legislative Acts. Retrieved from https://lex.uz/docs/4841126
21. Bakhodirov, R. (2020, 2023, 2024). Register of Manuscripts Located Overseas Concerning Uzbekistan's Cultural Heritage, Vols. I–III. Tashkent: Tasvir.
22. Bakhodirov, R. (2024). Register of Manuscripts Concerning Uzbekistan at the Library of Al-Azhar University. Tashkent: Agency for Cultural Heritage of the Republic of Uzbekistan, «TASVIR» / LLC «Colorpack.»
23. Khwaja Ubaydullah Ahrar. (2023). Sharh-i Rubaʿiyyat-i Abu Saʿid ibn Abul Khayr [Manuscript]. Inv. Nos. 369/I and 369/II.
24. Bobokhonov, Sh., & Abdulaziz Mansur. (1993). Index of Manuscripts on the Naqshbandi Tariqat. Tashkent: Institute of Oriental Studies named after Abu Rayhan Beruni, Islamic Solidarity Fund of Uzbekistan, «Movarounnahr.»
25. Shaykh Farid al-Din ʿAttar. (2020). Tadhkirat al-Awliya [Translated from Persian, manuscript copied in 1285 AH / 1868–1869, 260 folios]. Fund 933, Inv. No. 19.

ISSN 2181-1881 E-ISSN 2181-189X

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI IMOM MOTURIDIY XALQARO ILMIY-TADQIQOT MARKAZINING «MOTURIDIYLIK» JURNALI

Mazkur nashr oliy o‘quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.

Tahririyat fikri muallif nuqtai nazari bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Jurnaldan ko‘chirma olinganda manba qayd etilishi shart.

MOTURIDIYLIK

The Maturidiyya - الماتريدية - Матуридизм

Maxsus son/2026

Bosh muharrir: **K.Shermuxamedov**
Muharrir: **A.Tajiyev**
Nashr uchun mas’ul: **Z.Arslonov**
Chet tillaridagi matnlar muharriri: **O.Sotvoldiyev**
Dizayner-sahifalovchi: **Z.G‘ulomov**

Nashriyotning lisenziya raqami AI № 0011. 06.05.2019-yil.
Bosishga 12.10.2026-yil ruxsat etildi. Bichimi 60×84 $^{1}/_{8}$.
Rizograf usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i 10,2.
Nashr tabog‘i 10,4. Buyurtma № 23/1.
Bahosi shartnoma asosida.

«Standard Poligraf Service»
MCHJ qo‘shma korxonasi bosmaxonasida chop etildi.
100152, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Foziltepa ko‘chasi, 12B.